

Sayyora Latipova Tohir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

sayyoralatipova97@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yozuvchi Jo`ra Fozilning tarixiy mavzuda yozgan asarlari haqida so`z boradi. Zamonaviy hamda tarixiy mavzularda yaratilgan asarlarning farqlari aks ettiriladi. O`zbek adabiyotida moziy voqeligi aks ettirilgan asarlarning bugungi kundagi ahamiyati keng yoritiladi.

Kalit so`zlar: tarixiy roman, obraz, dramatizm, badiiy adabiyot, jadidlar davri adabiyoti, tarixiy qissa.

Tarixiy mavzuda asar yaratish adabiyot sohasida asosiy vazifalardan biridir. Badiiy adabiyotning muhim jihatlaridan biri o`tmishda bo`lib o`tgan voqealar, tarixiy shaxslarga bag`ishlangan asarlar yaratishdir. Tarixiy mavzuda yaratilgan asarlar o`zbek adabiyotida katta ahamiyatga ega.

Tarixiy voqelikni to`laligicha va haqqoniy badiiy adabiyotda ifodalash yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Olis o`tmishda bo`lib o`tgan hodisalar bilan bugungi zamon ruhini uyg`unlashtirish muhim masala hisoblanadi. Negaki, har bir tarixiy asarning bugungi davrdagi ahamiyati katta, o`rni beqiyosdir.

Tarixiy qissalar jadid adabiyoti, sobiq sho`rolar davrida va mustaqillikdan keyingi yillarda mahoratli ijodkorlar tomonidan yaratilib kelinayotgan janr sirasiga kiradi. Mazkur janrning ham boshqa janrlar singari o`ziga xos xususiyatlari bo`lishi tabiiy hol, albatta.

Jo`ra Fozil asosan zamonaviy mavzuda asarlar yaratib, qalami o`tkirlashgan adiblar sirasiga kiradi. Yurtimiz istiqlol davrining dastlabki yillariga qadam qo`ygach, adib katta jasorat va matonat bilan juda murakkab va shu bilan birga qiziqarli mavzuda qalam tebratdi – Islom dini kirib kelishidan avval zardushtiylik dini mavjud bo`lgan bir davrda Buxoroning ijtimoiy, iqtisodiy, ma`naviy hayoti, me`morchiligi, tarixi va podshohlari; Islom dini yoyilganligidan keyingi davrda bu maskanda yashagan podshohlar, sulolalar, imperiyalar kurashi, hayoti, faoliyati, Buxoroning mahoratli elchilarli to`g`risida bayon qiluvchi keng ko`lamli epik asar yaratish uchun harakat qiladi. Adibning bir necha yilgi izlanishlari, o`tmishga katta qiziqish bilan qarab, tarixiy manbalarni sinchiklab o`rganishlari, fikr-mushohadalari natijasida bir nechta tarixiy asarlar adabiyot maydoniga kirib keldi. Bulardan o`zbek tarixiy qissachiligidagi “Oshiq Buxoriy qissalari” turkumidan o`rin olgan “Buxoro malikasi”, “Ibtido va intiho”, “Qizil quyun ” va yaqin tariximizning 70-yillaridagi askarlarning hayotini

yoritgan “Boyqo’ng’ir lolalari” kabi asarlari, “Ayriliq ostonasi” nomli romani, sovet tuzumining shafqatsiz siyosatini ko’rsatuvchi “G’oziyon zindoni” hikoyasi va “Buxoroyi sharif elchilari” nomli asarini ko’rsatishimiz mumkin.

Jo`ra Fozil asosan tarixiy asarlarini yozish mobaynida o`zining ijodkorlik salohiyatini, o`ziga xos ijod yo`lini, o`y-fikrlarining keng va mazmunliligini, o`z yurtiga bo`lgan munosabatini to`la-to`kis namoyon eta oldi.

Adib tarixiy asarlarida asosan Buxoro tarixini yoritishni maqsad qilgan. Bu yurtning o`tmishi esa makon va zamon nuqtai nazaridan ulkan va cheksizdir. Moziy mavhumlikni ham o`z ichiga oladi. Negaki, biror tarixiy voqeanning bayoni yoki shaxsning faoliyati to`g`risida turli davrlarda turlicha qarashlar, ijodkorlar ijodida esa har xil ma’lumotlar mavjud bo`ladi. Jo`ra Fozil tarix voqealarning qaysi davrda bo`lib o`tganligiga aniqlik, oydinlik kiritish maqsadida asarlarga nom berishga alohida e’tibor qaratadi. Bundan tashqari, adib har bir asar muqaddimasida qaysi davr voqealarini bayon etganligini ta’kidlab o’tadi.

Jo`ra Fozil yaratgan tarixiy qissalar bugungi davrda bu janrning yanada yuksalishiga, Buxoro tarixinining yorqin aks ettirilishiga katta ahamiyat kasb etadi. Adib moziy haqida yaratilgan qissa va romanlari bilan tarixiy janr rivojida o`zining munosib hissasini qo`sha oldi. Jo`ra Fozil tarixiy qissachilikni yangi bir bosqichga olib chiqqan yozuvchilardan biridir. Adibning qissachilikdagi mahorati zamonaviy o’zbek adabiyotida nasrning badiiy tasvir vositalari imkoniyatlarining darajasini ko’rsatib berish bilan xarakterlidir. “Oshiq Buxoriy qissalari” turkumidan o’rin olgan har bir tarixiy qissada Buxoroning tarixi tasvirlangan bo`lib, bunda adib obrazlarning boshidan kechirgan musibatlari, ko’rgan voqe-hodisalarini emas, balki ularning ichki dunyosi, ruhiy holatlari, ma’naviyatini ko’rsatishga e’tibor qaratadi. Bu orqali yozuvchi Buxoro tarixida yashagan sulolalar va imperiyalar davrining badiiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotini o’z holicha aks ettirgan.

Shu narsa ayonki, jamiyatda ilg`or shaxslar doimo kurashlar girdobida bo`ladi. Aslida davlat boshlig`i, hukmdorlar ana shunday xususiyatga ega hayotda yashaydilar. Ularning hayotida har xir voqe - hodisalar kurashlar, qarshiliklar, janglar, turli his-tuyg`ular va shunga o’xshagan bir-biriga zid holatlar bo`ladi. Adibning tarixiy asarlaridagi har bir bosh qahramon ana shunday hodisalar qurshovida tasvirlanadi. Bu bilan yozuvchi o’z ijodida faqat davlat boshqaruvidagi shaxslarning hayoti va faoliyatini yoritishni maqsad qilgan degan xulosaga kelish noto`g`ri. Buxoro tarixini boricha, haqqoniy ifodalash barobarida adib, hukmdorlar atrofida bo`lgan ko`plab obrazlar tabiatini ham yorqin aks ettirgan.

Jo`ra Fozilning tarixiy asarlari badiiylik nuqtai nazaridan bir xil darajada bo`lmasa ham, tarixni yoritishda muhim manba bo`lib xizmat qiladi. Nosir ijodiy faoliyati davomida ona makonimiz bo`lmish Buxoroning qadim tarixidagi bizga ma’lum bo`lmagan hayotni ifodalash bilan bir qatorda, nomi, yurt uchun qilgan

xizmatlari bizgacha yetib kelmagan bir qancha tarixiy shaxslarning faoliyatini ham ko`rsatib bergen. Adibning izoh berishicha, bunday mas'uliyatli va dolzarb mavzuda qalam tebratish uchun yozuvchi bir qancha tarixiy manbalarni chuqur o`rganib, ularga tayangan. Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari, Sovetlar davrida mavjud bo`lgan BXSR hujjatlar to`plami, Buxoroning so`nggi amiri Amir Olimxonning “Buxoro xalqining hasrati tarixi” nomli xotiralaridan foydalangan.

Jo`ra Fozilning “Oshiq Buxoriy qissalari” turkumidan o`rin olgan tarixiy qissalari hamda “Buxoroyi sharif elchilari” asarida Buxoro o`tmishining eng murakkab davrlari – arablar istilosiga va Islom dinining tarqalishi, Somoniylar orasidagi ixtiloflar natijasida bu sultanatning inqirozi, Rossiya imperiyasining O`rta Osiyoni mustamlakaga aylantirishi, Buxoro amirining xatolari kabi hodisalar haqida qalam tebratgan. Adib bu davrlar hayoti, siyosiy vaziyatini to`g`ridan to`g`ri tasvirlamaydi. Bu voqeа-hodisalarni qissalarda mavjud bo`lgan bosh obrazlar: “Buxoro malikasi”da Qaboj, “Ibtido ba intiho”da Ismoil Somoniylar, Ismoil Muntasir, “Buxoroyi sharif elchilari”da Ernazar Maqsud, “Qizil quyun”da Abduqahhor, Abduvahob kabi tarixiy shaxslarning o`y-fikrlari, xatti-harakatlari, yurt uchun qilgan xizmatlari orqali tasvirlaydi.

Adib “Buxoroyi sharif elchilari” nomli tarixiy asarida bundan taxminan ikki yuz yilcha ilgari buxoroda yashagan savdogar va elchi Ernazar Maqsudning Moskva, Sankt-Peterburg va Istanbul shaharlariga qilgan safarlari, xorijiy hukmdor va siyosatchilar bilan olib borgan muzokaralari, uning ona yurti sharaфи uchun jonbozliklari va o`z diyoridan olisda vafot etishi kabi voqeа-hodisalarni tarixiy dalillar bilan ko`rsatib bergen.

Mazkur asar boshqa tarixiy qissalardan farq qiladi, negaki ushbu qissada boshqa tarixiy asarlarda bo`lgan bosqinchilik urushlari, dirlar o`rtasida nizolar, bir mamlakatning boshqasiga qaram bo`lishi kabi voqeа-hodisalar uchramaydi. “Buxoroyi sharif elchilari” asarida faqat Buxoro va Xiva xonliklarining emas, balki Rossiya va qisman Prussiya xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma`daniy hayoti, urf-odatlari, milliy qadriyalari, hukmdorlarning mamlakatda olib borayotgan siyosatlari, davlatlarda mavjud siyosiy vaziyatning qandayligi, podshohlarning xarakter-xususiyatlari haqida juda ko`p qimmatli ma'lumotlar berilgan. Adib mazkur qissada Rossiya taxtida o`tirgan to`rt hukmdorning faoliyatini yoritgan.

Biz mazkur asarni tarixiy-biografik qissa deb ta`riflashimiz ham mumkin edi, biroq asarning bosh qahramoni bo`lmish Ernazar Maqsudning hayoti, faoliyati, yashagan yillari, oilasi haqida ma'lumotlar yetarli emas. Romitanlik elchingin faoliyatini yoritishda adib badiiy to`qimadan unumli foydalangan. Shu sababli ushbu qissani tarixiy-biografik asar deyolmaymiz. Mazkur qissa yetti oy mobaynida yozilgan. Asar qancha ko`p vaqtida yaratilsa, uning badiiy saviyasi ham shu qadar oshib boradi.

“Buxoroyi sharif elchilari” nomli asar 2006-yili qissa janrida nashr etilgan. Biroq O’zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov va Namangan xalqining shoiri Habib Sa’dulla kabi ijodkorlarning bu asarga bo’lgan munosabatlari; ushbu asarda bir qancha obrazlarning ishtirok etganligi hamda voqealar rivojining keng ko`lamda bayon etilganligi sababli asar roman janrida bo`lishi kerakligi kabi maslahatlarini tinglagan adib, ushbu asarni keyinchalik roman janri sifatida qayta chop ettiradi.

Jo`ra Fozilning tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarida xalq hukmdorlarining vazifalari, Buxoroning arablar tomonidan istilo qilinishi sabablari, somonxudotlarning davlatni boshqarishdagi xatolari, Buxoro va Xiva xonliklari orasidagi munosabatlarning XVIII asrdagi holati, davlatlar orasidagi elchilik aloqalari, Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga kirib kelishi va bu yerda yuritgan siyosati oqibatlari haqida bir qancha muhim ma’lumotlar berilgan.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, yozuvchi Jo`ra Fozil zamonaviy hamda tarixiy mavzularda bir xil ijod qila oladigan mahoratli qalamkashdir. O`tmish voqealari aks ettirilgan asarlar, insonlarga, kitobxonlarga ham ma’nan, ham ruhan ozuqa bo`la oladi. Yosh avlodni kamol topishida, hayotda o`z o`rnini topishida moziy voqealari bayon etilgan asarlarning o`rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fozilov J. Ayriliq ostonasi: Tarixiy roman, qissa, hikoyalar: – T.: Sharq, 2006. – 288 b.
2. Fozilov J. Oshiq Buxoriy qissalari.- : Buxoro nashriyoti, 2016 . –320 b.
3. Sayyora, L. (2024). DAVLAT SIYOSATI HAMDA JAMIYAT HAYOTIDA AYOLLARNING ORNI (YOZUVCHI JORA FOZILNING “AYRILIQ OSTONASI” ROMANI ASOSIDA). *Science and innovation in the education system*, 3(5), 173-176.
4. Bakhrongnova, R. G. (2024). Irony as a Type of Movement in Artistic Literature. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 231-235.
5. Latipova, S. (2024). TARIXIY ROMANDA DARVESH OBRAZI (YOZUVCHI JORA FOZILNING “AYRILIQ OSTONASI” ROMANI ASOSIDA). *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(1), 58-61.
6. Avazova N., Jalilova O. ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 20-24.
7. Laylo, J. R. (2024). NAVOIY ASARLARIDAGI OZIQ-OVQAT VA O ‘SIMLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI. News of UzMU journal, 1(1.3), 299-302.
8. Bakhrongnova, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 186-192.
9. M.Latifova O’ZBEK TILIDA QO’SHMA SO’ZLAR TADQIQI (RAVISH SO ’Z TURKUMIGA OID QO ’SHMA SO ’ZLAR MISOLIDA) //Science and innovation in the education system. –2023. –T. 2. –No. 5. – http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/11411
10. Jiyanqulovna, J. R. L. (2022). TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 39-43.
11. Jo’rayeva, L. (2024). ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 3(3), 124-127.